



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
ona tili fanidan IV chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf ona tili fanidan IV chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Matn o‘qish (Abdulla Qodiriyning tarjimai holi). Topshiriqlar ustida ishlash	1		
2.	Badiiy va rasmiy shakldagi tarjimai hol yozish	1		
3.	“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali. Tasviriy matn. Audiomatn. Tarixiy sanalar, atoqli otlar, joy nomlari imlosi.	1		
4.	Ikki nuqta va ko‘p nuqta tinish belgilarining ishlatilishi	1		
5.	Audiomatn. Tahlil va talqin	1		
6.	Matn o‘qish(“Jonli musiqa festivalining ochilishi”)	1		
7.	Matn qismlari bilan ishlash	1		
8.	Mustahkamlash	1		
9.	Oliy Majlis. Matn o‘qish (Parlament nima?) Qonunchilikka oid atamalar, ularning talaffuzi va imlosi. Yozma nutqda nuqtali verguldan foydalanish qoidalari	1		
10.	Matn asosida topshiriqlar. Lug‘atlar ustida ishlash.	1		
11.	Matn o‘qish. E‘lon. Taklif va mulohazalar.	1		
12.	9-nazorat ishi	1		
13.	“Konstitutsiyamiz bilimdoni” tanlovini o‘tkazish uchun e‘lon yozish	1		
14.	“Olmoshsiz matn” topshirig‘i	1		
15.	Mualliflik huquqi. Tasviriy matn. Audiomatn. Matnga oid topshiriqlar	1		
16.	O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunining 3-, 6-moddasi. Tushunchalar tahlili	1		
17.	Matnni o‘qish (Ko‘chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir)	1		
18.	Tavsiyanoma yozish	1		
19.	Tavsiyanoma yozish	1		
20.	O‘tilganlarni takrorlash	1		
21.	O‘tilganlarni takrorlash	1		
22.	10-nazorat ishi	1		
23.	CHSB tahlili			
24.	Yakuniy dars. Ta'til topshiriqlari			

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Matn o‘qish (Abdulla Qodiriyning tarjimai holi). Topshiriqlar ustida ishlash
Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imoroti va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solibtur, to‘rt oshyonliq, Ko‘k saroyg‘a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig‘a yovuq qal‘aning ichida bir masjidi jum‘a solibtur, sangin, aksar, Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar.

bog‘lari	yaqin	aksariyat	juda, ko‘p	qavatli
jome‘	tosh yo‘nuvchi	katta, azim, buyuk, zo‘r	yuksak	ma‘lum

Abdulla Qodiriyning tarjimai holi haqida ma'lumot beruvchi ikki xil uslubdagi matnni qiyoslab o'qing.

1894-yilning 10-aprel kuni toshkentlik Qodir ota oilasida ikkinchi o'g'il dunyoga keldi. Unga Abdulla deb ism qo'ydilar. Abdulla juda zehnli bola bo'ldi. Uning otasi garchi madrasada o'qimagan bo'lsa-da, ilmi kishilarni juda hurmatlar, farzandlarining ham o'qimishli, ziyoli inson bo'lishini orzu qilardi. Shu bois o'zlari yashaydigan Samarqand darboza mahallasida yangi ochilgan rustuzem maktabiga o'rtancha o'g'li Abdullani berishga qaror qiladi. Chunki yosh Abdulla bundan oldin Zangiota mahallasidagi eski usuldagi maktablardan birida mulla Olim ismli o'qituvchidan saboq olgan. U ziyrakligi, qiziquvchanligi va ilmga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi.



Abdulla Qodiriy 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahrida dunyoga keldi. Otasi Qodir ota bog'bon bo'lgan. Abdulla oilada ikkinchi o'g'il farzand edi. U 1904–1906-yillarda musulmon maktabida ta'lim oladi. Birinchi ustoz mulla Olim bo'lgan. 1908–1912-yillarda rus-tuzem maktabida o'qiydi. So'ng ta'limni Abulqosim shayx madrasasida davom ettiradi. 1925–1926-yillarda esa Moskvadagi adabiyot kursida o'qidi.

Bu matn tarkibida Abdulla Qodiriy shaxsi bilan bog'liq sifatlarning berilgan yoki berilmaganini tahlil qiling. Buning sababini tushuntiring. Har ikkala matnda keltirilgan bir xil mazmundagi ma'lumotlarning ifoda shakliga e'tibor bering. Ularning o'zaro farqini tushuntirishga harakat qiling.

Tug'ilishi	1894-yilning 10-aprel kuni toshkentlik Qodir ota oilasida ikkinchi o'g'il dunyoga keldi. Unga Abdulla deb ism qo'ydilar.	Abdulla Qodiriy 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahrida dunyoga keldi.
Ta'lim olishi	Yosh Abdulla rus-tuzem maktabida tahsil olishdan oldin Zangiota mahallasidagi eski usuldagi maktablardan birida mulla Olim ismli o'qituvchidan saboq olgan. U ziyrakligi, qiziquvchanligi va ilmga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi.	U 1904–1906-yillarda musulmon maktabida ta'lim oladi. Birinchi ustoz mulla Olim bo'lgan. 1908–1912-yillarda rus-tuzem maktabida o'qiydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ushbu tarjimai hol kimga tegishli?
2. Ajratib ko'rsatilgan gaplarni qo'llashdan maqsad nima?
3. Matnda yozuvchi bilan bog'liq qanday sifatlarning borligiga e'tibor bering, ularni yozing.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Yashaydigan hududingiz, ko'rgan voqea-hodisalaringiz, ajdodlaringiz hamda yaqinlaringiz haqida ma'lumot beruvchi kichik memuar asar yozing.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Badiiy va rasmiy shakldagi tarjimayi hol yozish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Quyidagi shakldosh va ko‘p ma’noli iboralarining ikki xil ma’nosi bilan tanishing. Ularni qatnashtirib o‘zingiz yaxshi biladigan qahramon yoki ijodkorning tarjimayi holi bilan bog‘liq gaplar tuzing va yozing..

Balog'atga yetmoq.

1. Yoshi oila qurish darajasiga bormoq.
2. Biror sohada yetuk, yuksak darajaga erishmoq.

Iziga tushmoq.

1. Zimdan butun hatti-harakatini ta'qib qilmoq, kuzatib yurmoq.
2. Turmushdagi o'zgarishlarning odatiy holatga kelishi.

Boshidan kechmoq.

1. O'z hayotida ko'rmoq, his qilmoq.
2. Ma'lum bir muddat fikrlamoq.

So'z bermoq.

1. Ahd-u paymon qilmoq.
2. So'zlash uchun navbatni bermoq.

O'ng kelmoq.

1. Qulay bo'lmoq.
2. Voqelikka, chinga aylanmoq.

Berilgan iboralarning qaysilari ikki xil mazmunni ifodalashi mumkinligini aniqlang, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

1. Yerga qaratmoq.
2. Qattiqqo'l bo'lmoq.
3. Quloq solmoq.
4. Qo'l ko'tarmoq.
5. Havasi kelmoq.
6. Bosh suqmoq.
7. Bosh ko'tarmoq.
8. Bahridan o'tmoq.
9. Gapida turmoq.
10. Diliga tugmoq.

Berilgan birliklarning qaysilari rasmiy tarjimai holga, qaysilari badiiy uslubda yozilgan tarjimai holga tegishli ekanini aniqlab, ularni ajratib yozing.

Tug'ilganman, o'qiyman, oilada 4 nafar farzandmiz, opam Abdullayeva Nargiza 9-sinfda o'qiydi, matematika va ingliz tili fani mening jon-u dilim, oilada birin-ketin 4 nafar farzand tug'ilgan, ko'r-ko'rona o'rganganman, tahsil olganman, onam uy bekasi, dunyoga kelganman, havasim kelib yurdi, ma'lumotim oliy, kasbim injener, o'zi asli buxorolikman, ziyoli oilada tavallud topganman, qiziqishim baland bo'lgan, hozirda oyim uy ishlari bilan band, jon-jahdim bilan o'qiganman, otam o'z kasbining mohir ustasi, ona tili va adabiyot fanlariga qiziqaman, ota-onamning gaplariga quloq solib kam bo'lmadim, akam 8-sinf o'quvchisi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Tarjimai hol yozish qoidalariga rioya qilgan holda badiiy va rasmiy shaklda o'z tarjimai holingizni yozing. Bunda yuqorida berilgan namunalardan foydalanishingiz mumkin.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

48 listdan iborat ona tili fanidan 7-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**